



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

MUSTAQILLIK YILLARIDA FARG‘ONA VODIYSIDA KURASH SPORTINING RIVOJLANISHI

Maqsumov Nabijon Ortiqboyevich
Farg‘ona davlat universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqilligi yillarida Farg‘ona vodiysida milliy kurash sportining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Hududda sport infratuzilmasining takomillashuvi, ixtisoslashgan sport maktablari faoliyati, musobaqalar tizimi, xalqaro maydondagi yutuqlar hamda yoshlar tarbiyasidagi o‘rni ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, kurashning milliy qadriyat sifatidagi ahamiyati va uning ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: milliy kurash, Farg‘ona vodiysi, sport siyosati, yoshlar tarbiyasi, sport infratuzilmasi, xalqaro musobaqalar, polvonlar.

РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ БОРЬБЫ (КУРАШ) В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Максумов Набижон Ортикбоевич
Ферганский государственный университет, преподаватель

Аннотация

В статье анализируются этапы становления и развития национального вида спорта — кураша — в Ферганской долине в годы независимости Узбекистана. Научно обоснованно освещаются вопросы совершенствования спортивной инфраструктуры региона, деятельности специализированных спортивных школ, системы соревнований, достижений на международной арене, а также роли кураша в воспитании молодежи. Кроме того, раскрывается значение кураша как национальной ценности и его неразрывная связь с социально-духовными процессами общества.

Ключевые слова: национальный кураш, Ферганская долина, спортивная политика, воспитание молодежи, спортивная инфраструктура, международные соревнования, палваны.

THE DEVELOPMENT OF KURASH SPORT IN THE FERGANA VALLEY DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Maqsumov Nabijon Ortiqboyevich
Fergana State University, Lecturer

Abstract

The article analyzes the stages of formation and development of the national sport of kurash in the Fergana Valley during the years of Uzbekistan's independence. It scientifically examines the improvement of regional sports infrastructure, the activities of specialized sports schools, the competition system, achievements at the international level, and the role of kurash in youth education. The study also highlights the significance of kurash as a national value and its close connection with social and spiritual processes in society.

Keywords: national kurash, Fergana Valley, sports policy, youth education, sports

infrastructure, international competitions, wrestlers.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy sport turlarini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, milliy kurash xalqning tarixiy-madaniy merosi sifatida qayta tiklanib, zamonaviy sport tizimiga moslashtirildi. Bu jarayonda O'zbekiston Kurash Federatsiyasi hamda Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasining tashkil etilishi muhim omil bo'ldi.

Farg'ona vodiysi (Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari) esa azaldan polvonlar yurti sifatida tanilgan bo'lib, mustaqillik davrida bu an'ana yangi bosqichga ko'tarildi.

Adabiyotlar tahlili

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy sport turlarining rivojlanishi masalasi bir qator ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, milliy kurashning tarixiy ildizlari, qoidalar tizimining shakllanishi va uning xalqaro sport maydoniga chiqishi bilan bog'liq masalalar sportshunoslik, tarix va pedagogika yo'nalishidagi tadqiqotlarda tahlil qilingan.

Milliy kurashni institutsional rivojlantirish jarayonlari, jumladan, O'zbekiston Kurash Federatsiyasi faoliyati, sportni boshqarish tizimidagi islohotlar hamda normativ-huquqiy asoslar ilmiy manbalarda muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi tashkil etilishi va kurashning jahon sport tizimiga integratsiyalashuvi alohida tadqiqot obyektiga aylangan.

Hududiy kesimda olib borilgan tadqiqotlar esa asosan sport infratuzilmasi, bolalar-o'smirlar sport maktablari faoliyati, yoshlar siyosati hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalariga qaratilgan. Biroq Farg'ona vodiysi misolida kurash sportining mustaqillik davridagi rivojlanish bosqichlarini kompleks va tizimli tahlil qiluvchi ilmiy ishlar yetarli darajada emas.

Metodologiyasi

Mazkur tadqiqot kompleks metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy metod, tizimli yondashuv, statistik tahlil singari qator metodlardan foydalanildi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasida sportni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, yoshlar siyosati konsepsiyasi hamda milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish tamoyillariga tayanadi. Metodologik jihatdan ish sport sotsiologiyasi, pedagogika va tarix fanlarining nazariy qarashlari uyg'unligida olib borildi.

Natija va muhokama

Kurash – xalqimizning asrlar davomida shakllangan, takomilashgan milliy qadriyatlaridan biridir. U xalqimizning mardligi va botirligi, yengilmas va tantiligi, halol va bag'rikengligini namoyish etuvchi milliy sport turidir. “O'zbek kurashida xalqimizning ruhiyati, asl xislatlariga azal-azaldan xos bo'lgan fazilatlar: mardlik, jasurlik, bag'rikenglik, raqibiga nisbatan olijanoblik, halollik, insonparvarlik falsafasi mujassamlashgan” [1;3].

Millatimizning faxri bo'lgan kurash an'anasi bir necha ming yillik tarixga ega bo'lib, o'zida o'zbek xalqining ko'plab urf-odatlarini, udumlarini mujassamlashtirgan. Akademik A.Asqarov, professor M.Gryaznov, filologiya fanlari doktori K.Imomovlar olib borgan tadqiqot natijalari esa dastlabki sport o'yinlaridan biri hisoblangan o'zbek milliy kurashi 3,5–5 ming yil ilgari tarqala boshlaganligini ko'rsatadi. Surxon, Zarafshon, Farg'ona vodiysining bir qator qadimgi aholi manzilgohlaridan topilgan noyob topilmalar, qoyatoshlarga chizilgan tasviriy san'at namunalari ham bunga to'la shohidlik qiladi. Etnografik tadqiqotlarning guvohlik berishicha, O'zbekiston hududida kurash milodiy IX–X asrlarda keng rivoj topgan bo'lib, xalq sayllarida musobaqa o'tkazish an'anaviy tus olgan. “Mahalliy aholi turli marosimlarni nishonlashda, ayniqsa, Navro'z bayrami kunlarida kurash musobaqalarini o'tkazishga alohida ahamiyat bergan”. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan “Alpomish”,

“Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon”, “Rustam”, “To‘lg‘onoy” kabi dostonlarida ham pahlavonlar kurashi madh etilib, epchil va chaqqon, zukko va dono polvonlar ulug‘langan [2;52].

Milliy kurashimizning ko‘p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, ajdodlarimiz nazarida kurash, eng avvalo, polvonlarning odob-tarbiyasi, mardligi, oliyjanoblighi, ma‘naviy qiyofasi, umuman, har tomonlama yetuklik namunasi sifatida sharaflangan. Fikrimizning yaqqol namunasi tarzda xorazmlik mashxur shoir va polvon Pahlavon Mahmud timsolida mujassamlashganini va u o‘z davrida “puryoivaliy” (pahlavonlar pahlavoni) degan yuksak nom bilan mashhur bo‘lganligini ta‘kidlab o‘tish mumkin. U kurash san‘atidan tashqari diniy va dunyoviy ilmlarni, jumladan, astronomiya, matematika, kimyo, tibbiyot, falsafa, adabiyotshunoslik, san‘atshunoslik va huquqshunoslik bilimlarini mukammal egallagan har tomonlama yetuk inson bo‘lgan. Shu sababli bugungi kungacha minglab ziyoratchilar Pahlavon Mahmud maqbarasini ziyorat qiladilar. Uning davomchilari sifatida Pahlavon Baboxokiy, Shayx Xudoydod Azizon, Amir Uchqora bahodir kabi, keyingi davrlarda esa Axmad polvon, Avazxo‘ja polvon, Haydar Ali polvon, Abdurahmon polvon kabilarni misol keltirish mumkin [3;12].

Har qanday xalqning milliy an‘anasi shu millatning hayot ehtiyoji, turmush taqozosi natijasida dunyoga keladi. Kurash an‘anasini o‘zbek xalqi sobiq Ittifoq davrida taqiqlanib, tahqirlanib kelishiga qaramasdan ko‘z qorachig‘iday asrab, avlodlarga meros qilib, shu kungacha yetkazib keldi.

Mustaqillik tufayli o‘zbekning o‘zligi yana o‘ziga qaytdi. Unutilgan qadriyatlar, urf-odatlar qayta tiklandi. Milliy sport turi bo‘lmish kurashni rivojlantirish va jahon maydoniga olib chiqish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. 1992 yilda bu jarayonni amalga oshiradigan ishchi kuchi – Milliy Kurash Federatsiyasi tashkil etildi. Federatsiyaning meyoriy hujjatlari tasdiqlanib, kurash jonkuyarlarining tashabbuskor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Kurash qoidalar ajdodlarimizning urf-odatlari, udumlari, ishlatgan atamaları asosida sodda va oddiy qilib ishlab chiqildi. Polvonlarning ijobiy harakati “halol”, “yonbosh”, “chala” atamalarini ishlatish bilan baholanib, tomoshabinlar tomonidan tez va oson o‘zlashtirib olinadi. Eng asosiysi, sport tarixida birinchi marta kurash qoidasida 36 yoshdan 65 yoshgacha va undan katta yoshdagi vazn toifalari kiritilishi kurashning obro‘-e‘tiborini ko‘tarib yubordi, chunki ko‘plab yoshi ulug‘ polvonlar musobaqalarda qatnashishdan umidini uzgan edilar.

Ana shu qoidalar asosida 1992-yildan milliy kurashimiz bo‘yicha o‘tmishda yashab o‘tgan barcha pahlavonlar, ulug‘ allomalar xotirasiga bag‘ishlab nufuzli xalqaro musobaqalar boshlanib ketdi.

Ikkinchi bosqich 1998 – 2003 yillarni o‘z ichiga olib, maqsadi jahon chempionatlari, xalqaro musobaqalar tashkil etib, jahonda kurash bo‘yicha o‘z tizimini yaratish edi.

1999-yil 1-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasini qo‘llab-quvvatlash haqidagi” farmoni imzolandi. O‘z vaqtida qabul qilingan bu farmon o‘zbek kurashining butun jahonda keng quloch yoyishiga xizmat qilmoqda [4;2]. Unda kurashning xalqaro an‘analarini keng targ‘ib qilish maqsadida “Kurash” oylik adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik, axborot-reklama jurnali ta‘sis etildi. Jurnal XKA muassisligida o‘zbek, ingliz va rus tillarida nashr etila boshladi. “Kurash” o‘z sahifalarida o‘zbek kurashining jahonda tan olinishi, XKA va qit‘aviy konfederatsiyalar hamda xorijiy federatsiyalar bilan bog‘liq yangiliklar, shuningdek, kurashning o‘tmishi, taraqqiyoti va istiqbollari to‘g‘risida rangli suratlar bilan muntazam yoritib bormoqda. Hozirgi vaqtda jurnal o‘zbek kurashi rivojlanayotgan 50 dan ortiq mamlakatlarda o‘zining doimiy o‘quvchilariga ega.

1999-yil oktabrda XKAning tarkibida Xalqaro Kurash Akademiyasi tashkil qilingan. Ushbu Akademiya milliy kurashning boy tarixiy merosini o‘rganuvchi yagona ilmiy markaz bo‘lib, o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘ygan:

- ☐ kurash tarixini ilmiy asoslangan holda yaratish va keng miqyosda jahonga targ'ib qilish;
- ☐ kurashning ilmiy-amaliy uslubiyotini yaratish;
- ☐ kurashga oid ilmiy-amaliy anjumanlar, konferensiyalar, seminarlar o'tkazish va uning materiallarini ilmiy maqolalar to'plami sifatida chop etish;
- ☐ kurash bilan shug'ullanuvchi mamlakatlar bilan sport, ilmiy-amaliy, madaniy, ma'rifiy aloqalar o'rnatish va mustahkamlash;
- ☐ xorijiy davlatlarda XKAning filiallarini ochish;
- ☐ xalqaro toifali hakam, murabbiy, kurashchilarni tayyorlash va malakalarini oshirish.

Xalqaro Kurash Akademiyasi tomonidan yil davomida hakamlar va murabbiylar ish faoliyatini kuzatib boradi va yil yakunida eng kuchlilarini yuqori darajadagi unvonlarga tavsiya etadi. 2000-yil sport olamida o'zbek kurashi dovrug'ining ortishi va rivojlanishda muhim burilish nuqtasi bo'ldi, chunki bu vaqtga kelib u har tomonlama takomillashib, xalqaro sport o'yinlari qatoridan munosib o'rin egalladi. Shu yili kurashimiz oilasi safiga katta nufuz va sport olamida yuqori mavqega ega bo'lgan mamlakatlar kelib qo'shildi.

Uchinchi bosqich o'z ichiga 2003 – 2010 yillarni olib, asosiy maqsadi XKAning xalqaro va qit'aviy sport tashkilotlari bilan aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirish, kurashni sport turi sifatida Olimpiya va Osiyo o'yinlari dasturiga kiritishdan iborat.

Bugungi kunda XKAning jahonning barcha qit'alarida 94 ta kurash federatsiyalari tashkil etilgan va ularning safi kundan-kunga ko'paymoqda. Bu o'rinda Osiyo, Yevropa, Afrika va Janubiy Amerika qit'asi davlatlari bilan bo'layotgan hamkorlikni alohida takidlash joiz. Yuqorida aytib o'tilgan sporti rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda, biz uchun "g'aroyib" ko'ringan Dominikan Respublikasida, Paragvayda, Ekvadorda, Zambiyada, Nigeriyada, Mavrikiya orollarida ham zo'r qiziqish bilan o'zbek kurashini o'rganishmoqda. Kurashni targ'ib etuvchilar soni kundan-kunga ortib, Zambiya dzyudo federatsiyasi prezidenti Matilda K.Mvaba xonim ham ayollar kurashini zo'r muvafaqqiyat bilan rivojlantirib bormoqda. Assotsiatsiya faoliyati haqida nafaqat mahalliy, balki xorijiy ommaviy axborot vositalarida ham o'zining xolis bahosini topmoqda. Jumladan, "Total sport", "The world judo" jurnallarida milliy kurashimiz bilan bog'liq barcha voqealar yoritilib borilmoqda. Bundan tashqari, XKA YUNESKO qoshidagi "Jismoniy tarbiya va sport fani xalqaro kengashi" a'zosidir [5;19].

Kurashning jahondagi nufuzini yanada oshirish maqsadida Assotsiatsiyaning oliy nishoni – "XKA Oltin ordeni" ta'sis etilgan. Uning birinchi sohibi O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov, so'ngra Hindiston Milliy kongressi partiyasi yetakchisi Sonya Gandi, XOK prezidenti Jak Rogge, OOK prezidenti Shayx Ahmad Al-Fahd As-Sabah, Butunjahon Olimpiya Assotsiatsiyasi, Panamerika Olimpiya qo'mitasi Prezidenti Mario Vaskes Ranya, Yevropa Olimpiya Assotsiatsiyasi prezidenti Patrik Xiki, Afrika Olimpiya Assotsiatsiyasi prezidenti Lasanna Palenfoler sazovor bo'ldi. Ular o'z navbatida o'z qit'alarining kurash konfederatsiyalarining faxriy prezidentlaridir.

Ma'lumki, futbolning vatani Angliya bo'lsa, karate va dzyudoning vatani Yaponiyadir, o'z navbatida undagi atamalar ham o'z xolicha qabul qilingan. Jahonda o'zbek so'zlarining aytilib, ishlatilishiga sababchi bo'lgan kurashning vatani esa – O'zbekiston. Endi dunyo xalqlari sportida "halol", "yonbosh", "chala", "g'irrom", "dakki", "tanbeh" atamalari bilan kirib borgan "O'zbek kurashi" degan tushuncha mavjud.

Mashhur rus olimi va pedagogi P.F.Lesgaftning fikricha: "Kurash – bu yoshlar jismoniy tarbiyalash usulidir. Kurash – bu ortib boruvchi mashqlar yordamida o'zining tanasini boshqarish mashqlaridir". Uning va yana ko'plab olimlarining fikricha, kurash maktab jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinfdan kiritilishi kerak, chunki bu harakatlar bolalar jismoniy

baquvvatligini mustahkamlashdagi eng mukammal vositadir [6;14].

Shu sababli o'quvchi yoshlarimizga milliy kurashimiz, uning tarixi haqidagi bilimlarini kengaytirish maqsadida maxsus o'quv kurslari, maktab jismoniy tarbiya darslarida kurash tarixi soatlarini tashkil etish zarur. Kurashning boshlang'ich sinflardan tortib o'rgatilishi yoshlarimizning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham barkamol bo'lib yetishishiga yordam beradi, chunki kurash bu shunchaki sport turigina emas, balki insonni jismoniy va ma'naviy kamolotga eltuvchi tarbiya maktabidir. Bu maktabni o'tagan har bir yigit – qiz vatanga muhabbat, olijanoblik, insoniylik, mustaqil dunyoqarash, kuchli iroda kabi ijobiy xislatlarni egallab tarbiyalanadi.

Xulosa qilib aytganda, asrlar sinovidan, tarixiy davrlar silsilasidan o'tgan, mardlar va munosib raqiblar bahsi bo'lgan o'zbek kurashi mustaqillik sharofati bilan umudavlat darajasijagi sportga aylanib, butun jahon nazariga tushdi. Har qanday sport turidan Olimpiya, jahon chempionlari yetishib chiqishi mumkin. Ammo hamma millat ham o'z sportini jahon maydoniga chiqara olmaydi. Sportchilarning oliy maqsadi Olimpiya chempioni bo'lish, o'zbek millatining, jahon kurashchilarining eng oliy maqsadi – kurashni Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritishdan iborat. O'zbek kurashining milliy sport turi sifatida dunyoga yuz tutishi, mamlakatimizning jahon sport hamjamiyatidagi nufuzini yanada oshishida o'zining beqiyos hissasini qo'shmoqda.

Ushbu bobni yakunlab, quyidagi xulosalarni bildirish mumkin. Mustaqillik yillarida MOQ, XKA va sport turlari bo'yicha federatsiyalarning asosiy faoliyati xalqaro sport aloqalarini mustahkamlash, xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishish va bu orqali O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuv jarayonini jadallashtirishga qaratilgan. Bugungi kunda sport imkoniyatlari cheksiz bo'lib, respublikada olib borilayotgan sport musobaqalari, ularning uzluksiz va mantiqiy davom etishlari, ularda maktab yoshidan tortib talabalargacha ishtirok etishi jahon musobaqalarda g'alabaga erishishga zamin yaratmoqda. Bu yo'lda yuqorida qayd etilgan tashkilotlarning hizmatlari beqiyos. Qolaversa xalqaro sport aloqalarining rivojlantirish, mamlakatimizni xalqaro sport hamjamiyati oldidagi obro'sining oshishi, davlatlararo do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga hizmat qilishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Юсупов К.Т. Кураш халқаро қоидалари, техникаси ва тактикаси. – Т., 2005. – Б. 3.
2. Алпомиш достони. I–II–қисмлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992; Гўрўғли достони. – Тошкент: Фан, 1994.
3. Тоймуродов А.Р. Ўзбек миллий кураши. – Тошкент: Тиббиёт, 1990. – Б.12.
4. ЎзР Президентининг «Халқаро Кураш Ассоциациясини қўллаб-қувватлаш ҳақидаги» ПФ-2211 Фармони 1999, 1 февр.
5. ХКАнинг халқаро бўлимининг идоравий архив материалларидан
6. Лесгафт П.Ф. Руководство по физическому образованию детей школьного возраста. 2-е изд. – СПб., 1909. Т. I–II, Бурханов А.И. Влияние спорта на организм школьников // Теория и практика физической культуры. – М., 1995. – №4. – С. 14.